



## YANTOQ O'SIMLIGIDAN QURUQ ESTRAKT OLISH VA UNING TAHLILI

Azlarova N.X.

Saidvaliev A.K.

Toshkent farmasevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

e-mail: azlarovanigora52@gmail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17334475>

**Mavzuning dolzarbligi:** O'zbekiston hududlarida keng tarqalib o'sadigan yantoq (верблюжья колючка) o'simligini hom ashyosidan suv yordamida quruq ekstrakt olish.

**Tadqiqot maqsadi:** Ishni maqsadi Toshkent viloyati, Bo'stonliq rayonida o'stirilgan yantoq (Alhagi pseudalhagi - Верблюжья колючка) o'simligining er ustki qismidan suv yordamida quruq ekstrakt olib yig'indini foiz miqdorini aniqlash.

**Yantoq** (Alhagi)- dukkakdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik begona o'tlar turkumi. O'rta Osiyoning dasht, cho'l, chala cho'llarida hamda Rossiyaning Yevropa qismidagi chala cho'l rayonlarida 5 turi ma'lum. O'zbekistonda Ya.ning soxta yantoq va qirg'iz yantog'i turi o'sadi. Bo'yi 40-110 sm, tik, sershox, ildizi kuchli rivojlangan, yer osti suvlarigacha yetib boradi (10 m va undan ortiq). Barg qo'ltig'ida qattiq tikanlari bor. Barglari cho'ziq, nashtarsimon, barg bandi kalta, ketma-ket joylashgan. Gullari mayda, qizil yoki pushti. May – sentyabrda gullaydi, avgust – oktyabr oylarida urug'laydi.

**Materiallar va usullar:** Idishga yantoq o'simligini er ustki qismidan quruq ekstrakt olish maqsadida tegirmon yordamida maydalab kukun holiga keltirilgan aniq tortma (5 gr, 10 gr, 15 gr) olib, 250 ml hajmli kolbaga solib, xom ashyo ko'milguncha tozalangan suv qo'shildi, so'ngra qaynab turgan suv hammomida ( $90^0-100^0$ ) 2 soat davomida isitilib issiq holda paxta orqali filtrlab olindi. Qoldiq ikkinchi marotaba ekstraksiya qilindi, shu jarayon yana 3 marotaba qaytarildi. Filtratlar umumlashtirilib, 250 ml chinni koschaga o'tkazilib qaynab turgan suv hammomida quruq qoldiq qolguncha bug'latildi va qoldiq qirib olinib, tortib foiz miqdori aniqlanganda, o'rtacha 20% tashkil qilishi aniqlandi. Olingan tahlil natijalari jadval- 1 da keltirilgan.

jadval -1

**Yantoq o'simlik xom ashyosidan suv yordamida olingan quruq ekstrakt % miqdori**

| Olingan<br>tortma (gr) | Aniqlandi |       | Metrologik tavsifi                                                                                                           |
|------------------------|-----------|-------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                        | gr        | %     |                                                                                                                              |
| 5,0                    | 1,57      | 31,4  | $\bar{X} = 30,9$<br>$S^2 = 0,173$ $S = 0,415$<br>$\Delta X = 1,153$ $\Delta \bar{X} = 0,576$<br>$E = 3,731$ $\bar{E} = 1,86$ |
| 5,0                    | 1,52      | 30,4  |                                                                                                                              |
| 5,0                    | 1,20      | 23,9  |                                                                                                                              |
| 10,0                   | 2,32      | 23,20 | $\bar{X} = 23,41$<br>$S^2 = 1,189$ $S = 1,09$<br>$\Delta X = 3,03$ $\Delta \bar{X} = 1,5$<br>$E = 12,94$ $\bar{E} = 6,45$    |
| 10,0                   | 2,30      | 23,00 |                                                                                                                              |
| 10,0                   | 2,20      | 20,20 |                                                                                                                              |
| 10,0                   | 2,50      | 25,00 |                                                                                                                              |
| 15,0                   | 4,30      | 28,6  | $\bar{X} = 28,7$<br>$S^2 = 0,813$ $S = 0,901$<br>$\Delta X = 1,25$ $\Delta \bar{X} = 1,118$                                  |
| 15,0                   | 4,20      | 28,0  |                                                                                                                              |
| 15,0                   | 3,77      | 25,09 |                                                                                                                              |